XALQ DEPUTATLARI NURAFSHON SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-113-10-213-K/25 Nurafshon shahri

Nurafshon shahri 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27- va 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil dekabr oyidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qarori hamda shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1127-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda — qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq, Nurafshon shahri byudjetining 2026-yilgi daromadlari 68 726 670,0 ming so‘m hamda xarajatlari 68 726 670,0 ming so‘m miqdorida ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek shahar byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 307 126,0 ming so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda shahar byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar byudjeti zaxira jamg‘armasining hajmi 2026-yil uchun 1 098 583,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘lari amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan

vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha shahar kesimida yuridik shaxslarga yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar 3-ilovaga muvofiq;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha shahar kesimida jismoniy shaxslarga yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar 4-ilovaga muvofiq;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kvadrat metri uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar — 5-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar — 6-ilovaga muvofiq;

shahar mahalliy soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlarining stavkalari qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlansin:

– suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar — 7-ilovaga muvofiq;

– noruda qurilish materiallari (sementdan tashqari) uchun belgilangan qat’iy stavkalarga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar — 8-ilovaga muvofiq;

– mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar — 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A. Eshbayev hamda shahar soliq inspeksiyasi (J. Sayfiyev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarning o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanishi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

– byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishini, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar hamda davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarning to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida moliyalashtirilishini;

– o‘zlarining hamda tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetalari va shtat jadvallari, shuningdek daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishini;

– byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishini va belgilangan maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishini;

– tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishini;

– o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan samarali nazorat o‘rnatilishini;

– byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda tegishli ma’lumotlarning joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M. G‘ulomov) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A. Eshbayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **KLICHXANOV ILXOM MAXMUDJONOVICH**

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-113-10-213-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Nurafshon shahri mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz koʻrsatkichlari miqdori

T/r	Daromad turlari	Nurafshon shahri
	JAMI	**68 726 670**
1	Qoʻshilgan qiymat soligʻi	4 384 030
2	Foyda soligʻi	1 210 250
3	Aylanmadan olinadigan soliq	6 589 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	18 072 700
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	8 624 000
	Aksiz soligʻi jami	315 840
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	Pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilgʻisi va gazni oxirgi isteʼmolchiga realizatsiya qilishda toʻlanadigan aksiz soligʻi*	*315 840*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 638 300
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	7 825 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	2 220 800
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	8 263 000

11	Qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq	2 783 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 370 000
	shundan: qishloq xoʻjaligi korxonalari boʻyicha suv soligʻi	0
	Qishloq xoʻjaligi korxonalari suv soligʻining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	0
13	Davlat ulushi boʻyicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	460 670
15	Yigʻimlar	1 929 200
16	Jarimalar	936 880
17	Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari	104 000

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-113-10-213-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Nurafshon shahri mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T/r	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Nurafshon shahri
Xarajatlar miqdori, jami		**68 726 670**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	*14 802 084*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*803 400*
2	Madaniyat bo‘limi	*4 650 431*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*1 744 694*
4	Sport bo‘limi	*4 324 893*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi	*1 493 809*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*734 227*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*0*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 637 063*
9	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*0*

10	Hokimiyat	*22 929 019*
	shundan:	*0*
	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	*0*
	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi	*0*
	Madaniyat boʻlimi	*0*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	*0*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo boʻlimi	*0*
	Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boʻlimi	*0*
	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	*0*
	Oila va xotin-qizlar boʻlimi	*0*
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	*12 719 024*
	“Mahalla byudjeti” jamgʻarmasi mablagʻlari	*765 498*
	Zaxira jamgʻarmasi	*1 098 583*
11	Hokimiyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*0*
	shundan:	
	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*0*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	15 410 450
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-113-10-213-K/25 -son
qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha shahar kesimida yuridik shaxslarga yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFY nomi	Toshkent viloyat Kengashi tavsiyasiga asosan 1 k.v metr uchun (so‘m)	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 k.v metr uchun (noturar obyektlar uchun) (so‘m)	
			Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	
1	Oppoq mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
2	Oybek mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
3	Birlik mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
4	To‘ytepa mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
5	Hurriyat mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
6	Yangibod mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
7	Obod turmush mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
8	Obod mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
9	Taraqqiyot mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
10	Navro‘z mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
11	Nurafshon mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20

12	Degantepa mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
13	Dehqonobod mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
14	Ma‘rifat mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
15	Muqumiy mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20
16	Qumariq mahallasi	5 996,2	1,06	6 324,20

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-113-10-213-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha shahar kesimida jismoniy shaxslarga yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**Toshkent viloyat Kengashi tavsiyasiga asosan 1 k.v metr uchun** (so‘m)	**Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 k.v metr uchun** (turarjoylar uchun belgilangan o‘sish me’yoridan oshmagan holda) (so‘m)	
			Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	
1	Oppoq mahallasi	469,9	1,03	484,00
2	Oybek mahallasi	469,9	1,03	484,00
3	Birlik mahallasi	469,9	1,03	484,00
4	To‘ytepa mahallasi	469,9	1,03	484,00
5	Hurriyat mahallasi	469,9	1,03	484,00
6	Yangibod mahallasi	469,9	1,03	484,00
7	Obod turmush mahallasi	469,9	1,03	484,00
8	Obod mahallasi	469,9	1,03	484,00
9	Taraqqiyot mahallasi	469,9	1,03	484,00
10	Navro‘z mahallasi	469,9	1,03	484,00
11	Nurafshon mahallasi	469,9	1,03	484,00
12	Degantepa mahallasi	469,9	1,03	484,00

13	Dehqonobod mahallasi	469,9	1,03	484,00
14	Ma‘rifat mahallasi	469,9	1,03	484,00
15	Muqumiy mahallasi	469,9	1,03	484,00
16	Qumariq mahallasi	469,9	1,03	484,00

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-113-10-213-K/25 -son
qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar boʻyicha mol-mulk soliqlari uchun qoʻllaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent
1	Nurafshon shahar	1,00

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-113-10-213-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari

1	Nurafshon shahar	1,10	1,10	1,10	1,10	1,00

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-113-10-213-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq hoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Nurafshon shahar	1,20	1,25	1,25	1,35	1,20	1,25	1,25	1,35

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-113-10-213-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffisiyentlar

T/r	**Tuman va shaharlarnomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)

1	Nurafshon shahar	1,25	1,15	1,15	1,25	1,25	1,25	1,30

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-113-10-213-K/25 -son
qaroriga
9-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar boʻyicha, yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	Nurafshon shahar	1,10	1,00

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-113-10-213-K/25 -son
qaroriga
10-ilova

2026-yilda shahar gʻazna hisobvaraqlarida turgan budjet mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori

№	Hududlar boʻyicha jami	2026-yil
1	Nurafshon shahri	307 126